INDIVIDUAL TA’LIM – TA’LIM SHAKLLARINING ENG QADIMIYSI

Aytbayeva Gulchexra Yermekbayevna
Guliston davlat pedagogika instituti O‘zbek tili va tillarni

o‘qitish kafedrasi dotsenti
Abdiakimova Jadira Madiyar qizi
Guliston davlat pedagogika instituti qozoq tili va adabiyoti
ta’lim yo‘nalishi 14-22-guruh talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada guruhlarga ajratib o‘qitish, ularning mustaqil ishlarini to‘g‘ri va maqsadga muvofiq tashkil etish orqali barcha bilim va malakalarini dinamik rivojlanishiga xizmat qilishi va, ayniqsa, individual ta’lim deganda, talabaning shaxsiy qobiliyatlari, qiziqishlari, boshlang‘ich bilim darajasi va o‘rganish tezligini hisobga olgan holda, uning ta’lim traektoriyasini shaxsiy ehtiyojlariga moslashtirish tushinilish haqida fikrlar bayon qilingan.

Kalit so‘zlar: milliy pedagogika, individual ta’lim, pedagogik mexanizm, til mexanizm, tabaqashtirilgan ta’lim, individual qobiliyatlar, pedagogik yondashuv, hamkorlik va muloqot.

O‘zbekiston ta’limi tarixida Individual ta’lim shakli keng qo‘llanib kelingan. Uning samarasi, ayniqsa, amaliy san’at, hunarmandchilikda ustoz-shogird ta’limi tarzida namoyon bo‘lgan. Mashhur xalq ustalari Toshpo‘lat Arslonqulov, Usta Shirin Murodov, Qodirjon Xaydarov, Mahmud Usmonov, Hamro Rahimovlar shu tarzda ta’lim olganlar. Individual ta’limda bola ruhiyatining individual xususiyatlarini, fan sohalari va kasb egallashga bo‘lgan tabiiy moyilliklarini to‘liq e’tiborga olish imkoniyati ta’minlanadi [8].

Individual ta’lim – o‘qituvchining o‘quvchiga pedagogik ta’sirini amalga oshiruvchi o‘quv mashg‘ulotlari shakllaridan biri. O‘qituvchining o‘quvchi bilan sinf jamoasidan tashqarida olib boriladitan faoliyati tushuniladi. Individual ta’lim ta’lim shakllarining eng qadimiysi bo‘lib, u qadimgi davr va o‘rta asrlarda keng qo‘llangan [8].

Differensiyal ta’lim o‘quvchilarning individual tarzda, shuningdek, guruhlarga ajratib o‘qitish, ularning mustaqil ishlarini to‘g‘ri va maqsadga muvofiq tashkil etish orqali barcha bilim va malakalarini dinamik rivojlanishiga xizmat qiladi. Bunda o‘qituvchi har bir o‘quvchining qiziqishi, qobiliyati, layoqatini hisobga olib, mashg‘ulotlarni tashkil etish orqali dars samaradorligini oshirishiga erishadi [5; 360].

Tabaqalashtirilgan ta’lim – bu talabalarning individual qobiliyatlari, qiziqishlari va tayyorgarlik darajasini hisobga olib, ularga moslash-tirilgan ta’lim berish usuldir. Ona tili-o‘qish savoxonligi va uni o‘qitish metodikasi fanini o‘qitishda tabaqalashtirilgan ta’limning mexanizmlari va ularni amaliyotga tatbiq etish usullaridan biri sifatida individual ta’lim haqida fikr yuritsak.

Jon Dyui “Ta‘lim kelajak hayotga tayyorgarlik emas, balki hayotning o‘zi jarayonidir” [7] degan edilar. Individual ta’limning asoschisi ham Jon Dyui hisoblanadi. U XX asrning boshlarida ta’limda talabaning shaxsiy ehtiyojlari va qiziqishlariga alohida e’tibor berishni targ‘ib qilgan. Dyuining individual ta’limga oid fikrlari progressiv ta’limning asosini yaratdi, bu esa o‘z navbatida individual ta’limning butun dunyo miqyosida rivojlanishiga xizmat qildi.

Individual ta’lim har bir talabaning kuchli va sust tomonlarini aniqlab, ularga moslashtirilgan o‘quv materiallari va vazifalarni tayyorlashni nazarda tutadi. Individuallashtirib o‘qitish mexanizmini amaliyotda tatbiq etishning ko‘p tarqalgan usullari sifatida talabalarni tayyorgarlik darajasiga qarab guruhlarga ajratish hamda har bir talabaga alohida o‘quv rejasi tuzish asosida amalga oshiriladi. Bunda nisbatan past o‘zlashtirish darajasiga ega bo‘lgan talabalarga ona tilining grammatik qoidalarini tushunib yetishlari uchun ularga qo‘shimcha mashqlar taklif etish ko‘zda tutiladi. Individual ta’lim deganda, talabaning shaxsiy qobiliyatlari, qiziqishlari, boshlang‘ich bilim darajasi va o‘rganish tezligini hisobga olgan holda, uning ta’lim traektoriyasini shaxsiy ehtiyojlariga moslashtirish tushiniladi. Bu kabi ta’lim jarayonida talabaning faolligi va mustaqilligi oshiriladi, talaba o‘z ta’lim traektoriyasining asosiy subyektiga aylanadi.

Manbalarda individual ta’limni amalga oshirishning quyidagi tamoyillari o‘zaro farqlanadi: shaxsiy extiyojlarga moslashtirish: har bir talabaning o‘ziga xos qobiliyatlari va ehtiyojlarini hisobga olish; faol o‘rganish: talabaning o‘z bilimini mustaqil ravishda qurishi va izlash faolligini oshirish; ijtimoiy va hissiy rivojlanish: talabaning ijtimoiy va hissiy jihatdan rivojlanishiga yordam berish; tabaqalashtirilgan ta’lim: talabalarning bilim darajasiga qarab o‘quv materiallarini moslashtirish va texnologiyalardan foydalanish: zamonaviy texnologiyalar yordamida talabalarga shaxsiy ta’lim yo‘llarini taqdim etish.

Individual ta’lim mexanizmlarini amalga oshirishda quyidagi tarkibiy qismlar taqozo qilinadi: shaxsiy o‘quv rejalari: har bir talaba uchun uning qobiliyatlari va maqsadiga mos reja tuzish; monitoring va baholash: talabaning rivojini muntazam ravishda ko‘rib borish va uning natijalarini baholash; pedagogik yondashuvning xilma-xilligi: talabalarning turli o‘rganish usullariga mos keladigan pedagogik usullarni qo‘llash; texnologiyalarni qo‘llash: maxsus dasturlar va platformalar orqali talabalarga shaxsiy ta’lim yo‘llarini taqdim etish va hamkorlik va muloqot: talaba, ota-ona va o‘qituvchilar o‘rtasida doimiy aloqa va hamkorlikni ta’minlash.

Individual ta’lim asosida talabaning faolligi, mustaqilligi va ijtimoiy rivojlanishini ta’minlash maqsadi qo‘yiladi. Bu ta’limni amalga oshirishda zamonaviy texnologiyalar, tabaqalashtirilgan ta’lim usullari va shaxsiy rejalar keng qo‘llaniladi.

Individual ta’lim har bir talabaning shaxsiy ehtiyojlarini qondirish, uning ta’limdagi muvaffaqiyatini oshirish va ijtimoiy rivojlanishini ta’minlashda muhim vositadir. Bu ta’lim turlarining har biri o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, pedagogik amaliyotda ularning ahamiyatini inobatga olish ta’lim tizimining samaradorligini oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Individual ta’lim turlari va ularning xususiyatlari xususida quytidagi fikrlarni ifodalash mumkin: individual ta’lim dasturining xususiyati shundaki, u asosan turli bilish darajasi va imkoniyatiga ega talabalarga ularning kuchli hamda zaif jihatlari inobatga olinadi, shaxsiy ehtiyojlarini qondirish, uning ta’limdagi muvaffaqiyatini ta’minlash va ijtimoiy integratsiyasini osonlashtiradi.

Demak, individual ta’limning pedagogik ahamiyati talabalarning shaxsiy o‘sishini, o‘zlashtirish samaradorligini oshirish, ijtimoiy va hissiy rivojlanishini ta’minlash, inklyuziv ta’lim imkoniyatlarini rivojlantirishga qaratilganligida namoyon bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yixati:

1. Doniyarov, M.A. (2024). Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining o‘quvchilar o‘qish savodxonligini rivojlantirishga metodik tayyorgarligini takomillashtirishda PIRLS xalqaro tadqiqotining ahamiyati. Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences.
2. Muxsinova, K.S. (2024). Differensial yondashuv asosida talabalarni ijtimoiy-pedagogik faoliyatga tayyorlash imkoniyatlari. Pedagogs, 52(2), –B.69-76.
3. Muydinovich, R.I. (2022). Raqamli texnologiyalarning rivojlanishi tufayli paydo bo‘lgan kasblar va ularni o‘rganish. Pedagogs jurnali, 13(1), –B. 117–122.
4. Qurbonova B.M.Tabaqalshtirilgan ta’lim orqali o‘quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish . Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. (E)ISSN: 2181-1784 4(02), Feb., 2024. –B. 360.
5. Tirkasheva, G.B. (2022). Defferentsial yondashuv asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ijodkorlik faoliyatiga tayyorlashga oid tajriba-sinov ishlarini tashkil etish. So‘nggi ilmiy tadqiqotlar nazariyasi, 5(4).